

Pedagogik psixologiya va psixologiyani o‘qitish metodlarida raqamli avlod va psixologik himoya

Marjona Yoqubxo‘jayeva
NamDPI

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli avlod (Z va Alpha avlodlari) vakillarining psixologik-pedagogik xususiyatlari va ular duch keladigan raqamli muhitdagi psixologik tahdidlar nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. M.Prensky, J.Twenge, S.Turkle, N.Carr, M.Spitzer va o‘zbek psixologlarining tadqiqotlari asosida raqamli mahalliylarning kognitiv, emotsional va neyropsixologik o‘zgarishlari yoritilgan. Kiberbullying, raqamli giyohvandlik, FOMO sindromi, diqqat buzilishi va onlayn xavfsizlik kabi muhim muammolar tasniflanadi. Tadqiqotda psixologik himoyaning ko‘p qatlamli tizimi - shaxsiy, oilaviy, maktab va jamiyat darajasidagi - ishlab chiqilgan hamda pedagogik psixologiya darslarida ushbu mavzuni o‘qitishning samarali metodlari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari bo‘lajak amaliy psixologlar, maktab psixologlari va pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli avlod, raqamli mahalliylar, Z avlodi, psixologik himoya, kiberbullying, raqamli giyohvandlik, FOMO, media-savodxonlik, pedagogik psixologiya, amaliy psixologiya

Digital generation and psychological protection in pedagogical psychology and psychology teaching methods

Marjona Yaqubkhojayeva
NamSPI

Abstract: This article analyzes the psychological and pedagogical characteristics of representatives of the digital generation (Generation Z and Alpha) and the psychological threats they face in the digital environment from a theoretical and practical perspective. Based on the research of M.Prensky, J.Twenge, S.Turkle, N.Carr, M. Spitzer and Uzbek psychologists, the cognitive, emotional and neuropsychological changes of digital natives are highlighted. Important problems such as cyberbullying, digital addiction, FOMO syndrome, attention deficit disorder and online safety are classified. The study developed a multi-layered system of psychological protection - at the personal, family, school and community levels - and proposed effective methods for teaching this topic in pedagogical psychology classes. The results of the study serve

to form the professional competence of future applied psychologists, school psychologists and educators.

Keywords: digital generation, digital natives, Generation Z, psychological protection, cyberbullying, digital addiction, FOMO, media literacy, educational psychology, applied psychology

Mavzuning dolzarbligi. XXI asr kishilik tarixida birinchi marta avlodlar bir-biridan texnologiyalardan foydalanish jihatidan tubdan farqlanadigan davr bo'ldi. 1995-2012-yillarda tug'ilgan "Z avlodi" va 2013-yildan keyingi "Alpha avlodi" smartfon, internet va ijtimoiy tarmoqlar bilan birga ulg'aydilar. Amerikalik tadqiqotchi Mark Prensky 2001-yilda chop etilgan "Digital Natives, Digital Immigrants" maqolasida ushbu yangi avlodni "raqamli mahalliylik" (digital natives) deb nomladi, oldingi avlodlarni esa "raqamli muhojirlar" (digital immigrants) deb atadi [4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6079-son Farmonida raqamli iqtisodiyot va raqamli ta'limni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan [11]. Shu bilan birga, COVID-19 pandemiyasi davrida (2020-2022 yy.) o'tkazilgan ommaviy onlayn ta'lim talabalar va o'quvchilarning raqamli muhitga butunlay singib ketishini tezlashtirdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda O'zbekistonda 7-17 yoshli bolalarning 78 foizdan ortig'i shaxsiy smartfonga ega bo'lib, kuniga o'rtacha 5 soatdan ortiq vaqtni ekran oldida o'tkazadilar [3].

Lekin raqamli muhitga shu darajada chuqur singish o'sib kelayotgan avlod uchun yangi psixologik xavflarni keltirib chiqardi: kiberbullying, raqamli giyohvandlik, ijtimoiy taqqoslash sindromi (FOMO), diqqat buzilishi, depressiya va anksiyetlik darajasining oshishi. Bularning barchasi pedagogik psixologiya va amaliy psixologiya sohalarida yangi paradigma - raqamli psixologik himoya - ni shakllantirishni taqozo etmoqda. Bo'lajak amaliy psixologlar bu masalalarni nafaqat nazariy bilishi, balki amaliy yechim taklif qila olishi lozim.

Nikolas Karr o'zining "The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains" (2010) asarida internetning miyaga ta'sirini chuqur tahlil qiladi va "klipli tafakkur" (clip thinking) hodisasini tasvirlaydi [7]. Bu - qisqa, parchalangan axborot bo'laklari bilan fikr yuritish, chuqur va izchil tahlilning susayishi. Z avlodi uchun tipik o'qish sxemasi - "skanerlash" va "skimming": matnni satrma-satr o'qish o'rniga, kalit so'zlarga e'tibor berib chopib o'tish. Nemis neyrolog M. Spitser o'zining "Digitale Demenz" (Raqamli ahmoqlik, 2012) asarida uzoq muddatli xotira va konsentratsiya qobiliyatining keskin pasayishi haqida ogohlantiradi [8]. Uning ma'lumotlariga ko'ra, ma'lumotni Google'da topish mumkinligi xotiraga yodlash motivatsiyasini pasaytiradi - "Google effekti" deb ataluvchi hodisa.

MIT professori Sherri Turkle "Alone Together" (2011) va "Reclaiming Conversation" (2015) asarlarida raqamli avlod vakillarining "birgalikda yolg'iz" (alone together) bo'lish hodisasini tasvirlaydi: bolalar va o'smirlar jismonan yonmayon o'tirgan holda, har biri o'z ekranida virtual munosabatlar quradi [9]. Amerikalik psixolog Jin Tveng o'zining "iGen" (2017) tadqiqotida 1995-yildan keyin tug'ilgan o'smirlarda depressiya, anksiyetlik va o'z joniga qasd qilish urinishlari sezilarli oshganini smartfon va ijtimoiy tarmoqlarning ommaviy tarqalishi bilan bog'laydi [10]. Real va virtual "Men" o'rtasidagi ziddiyat - raqamli avlodning identifikatsion inqirozining asosiy manbai.

Britaniyalik neyrolog Syuzan Grinfil ekranlar bilan doimiy o'zaro ta'sir miyaning dopaminer tizimini qayta tuzilishiga olib kelishini ta'kidlaydi: "like" va bildirishnomalar (notifications)ga shartli reflektor reaksiya shakllanadi, bu esa kichik, lekin doimiy zavq impulslariga qaramlikni yuzaga keltiradi. Uyqudan oldin ekran nuri (blue light) melatonin gormoni ishlab chiqarilishini bostiradi, bu uyqu sifatining yomonlashishi va kun davomida charchoqning ortishiga olib keladi. Bularning hammasi o'quvchining maktabdagi e'tibori, xotirasi va emotsional barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi.

V.M.Karimovaning ijtimoiy psixologiyaga oid tadqiqotlariga ko'ra, mahalliy o'smirlar TikTok, YouTube, Instagram va Telegram kabi platformalarda kuniga o'rtacha 4-6 soatdan ortiq vaqt o'tkazadilar [3]. Bu raqam yevropalik va amerikalik tengdoshlarinikidan kam emas. Shu bilan birga, mahalliy madaniy va oilaviy qadriyatlar bilan global raqamli madaniyat o'rtasidagi ziddiyat qo'shimcha psixologik bosim yaratadi. Ko'pgina o'zbek oilalarida ota-onalar bolalarning onlayn faoliyatini samarali nazorat qila olmaydi, chunki o'zlari "raqamli muhojirlar" sifatida bu muhitni to'liq tushunmaydilar. Bu - maktab psixologi va bo'lajak amaliy psixolog uchun yangi va o'ta muhim ish maydonidir.

Raqamli avlod uchun psixologik himoya - bu yagona chora emas, balki ko'p qatlamli tizim. Uni shaxs, oila, ta'lim muassasasi va jamiyat darajalarida ko'rib chiqish lozim. Bu yondashuv jahon amaliyotida "ekologik model" (U.Bronfenbrenner) deb ataladi: bolaning rivojlanishiga turli darajadagi muhitlar (mikro, mezo, ekzo, makro) ta'sir qiladi va himoya choralari ham mos ravishda bir necha darajada qo'llanilishi kerak.

Birinchi va eng muhim qatlam - o'smirning o'zida himoya kompetensiyalarini shakllantirish. Bu komponentlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: raqamli savodxonlik (axborotni topish, baholash va xavfsiz ishlatish); media-savodxonlik (UNESCO standartlariga ko'ra - yolg'on yangiliklar, manipulyatsiya texnikalarini farqlash); tanqidiy fikrlash (har bir axborot manbasiga shubha bilan yondashish); emotsional intellekt (D. Goleman, 1995) - o'z his-tuyg'ularini tanish va boshqarish [5]; onlayn

empatiya - virtual muloqotda ham insoniy hurmatni saqlash. Bu kompetensiyalarni 7-yoshdan boshlab izchil shakllantirish lozim.

Ota-onalar bola bilan ochiq muloqotga ega bo'lishi, taqiqlash o'rniga uning onlayn hayotiga qiziqish bildirishi kerak. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-ona-bola munosabatlarida ishonchli muhit bo'lganda, bola muammoga duch kelganda birinchi navbatda ota-onasiga murojaat qiladi. "Raqamli muhojir" ota-onalar uchun maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu kurslarda ota-onalar Instagram, TikTok kabi platformalarning ishlash mexanizmlarini, bolalar duch keladigan tahdidlarni va ularni qanday hal qilish kerakligini o'rganadilar.

Maktab psixologi raqamli profilaktika ishida markaziy figura hisoblanadi. Uning vazifalari: 1) muntazam diagnostika (Internet qaramligi testlari, depressiya skrining shkalalari) o'tkazish; 2) sinflarda profilaktik treninglar olib borish; 3) kiberbullying holatlari ustida individual ish olib borish; 4) o'qituvchilar va ota-onalar uchun seminarlar tashkil etish. Aynan amaliy psixologiya yo'nalishi talabalari kelajakda bu vazifalarni bajarishga tayyorlanmoqdalar, shuning uchun universitet bosqichida ushbu kompetensiyalarni shakllantirish hayotiy ahamiyatga ega.

Davlat siyosati raqamli profilaktika tizimini moliyalashtirish, qonuniy normalarni belgilash (masalan, kiberbullying uchun javobgarlik), ommaviy axborot kampaniyalari va xalqaro hamkorlikni o'z ichiga oladi. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida bunday tizim shakllantirilmoqda [11]. "Bolalarni axborotning zararli ta'siridan himoyalash to'g'risida"gi Qonun (2017) ham huquqiy asos vazifasini bajaradi.

Anna Freyding klassik nazariyasiga ko'ra, shaxs ichki konfliktlardan himoyalani uchun ongsiz mexanizmlardan foydalanadi: *inkor* (qaramlikni tan olmaslik), *proyeksiya* (o'z agressiyasini boshqalarga ko'chirish), *qochish* (real muammolardan ekranga panoz izlash), *ratsionalizatsiya* ("Men har doim to'xtata olaman" deb o'zini ovutish). Pedagog-psixolog bu mexanizmlarni tan olishi va konstruktiv yo'nalishga buruvchi ishni tashkil etishi lozim. Aynan shu nuqtada klassik psixoanaliz nazariyasi zamonaviy raqamli muammolar bilan o'zaro bog'lanib, amaliy psixologning ish quroliga aylanadi.

Bo'lajak amaliy psixologlarni raqamli profilaktika ishiga tayyorlash uchun pedagogik psixologiya darslarida quyidagi metodlardan foydalanish samarali natija beradi. Muhim qoida: raqamli avlod uchun an'anaviy ma'ruzaviy o'qitish o'rniga interaktiv va eksperimental metodlar tanlanishi kerak.

Talabalarga real (ammo anonimlashtirilgan) kiberbullying yoki internet-qaramlik holatlari taklif qilinadi. Masalan: "14 yoshli o'smirning Instagram-da tahqirlangan profili"; "Kompyuter o'yinlari tufayli maktabni tashlab ketgan 9-sinf o'quvchisi"; "TikTok orqali begona kishi bilan muloqotga kirishgan qiz bola". Talabalar guruh bo'lib vaziyatni tahlil qiladilar, sabablarni aniqlaydilar va yordam rejasini ishlab

chiqadilar. Bu metod nazariy bilimni amaliy malakaga aylantirishning eng samarali yoʻlidir.

Talabalar uchlik boʻlib ish olib boradilar: biri - kiberbullying qurboni rovida, ikkinchisi - maktab psixologi, uchinchisi - kuzatuvchi (refleksiv tahlil uchun). Oʻyindan keyin har bir ishtirokchi oʻz pozitsiyasidan olgan tajribasi haqida hikoya qiladi. Bu mashq nazariy bilimni hissiy darajada singdirishga, empatiyani rivojlantirishga va kasbiy muloqot koʻnikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Talaba yoki kichik guruh bir semestr davomida mini-tadqiqot olib boradi. Mavzular: "Bizning kursdagi talabalarda FOMO darajasi"; "Maktab oʻquvchilarida ekran vaqtining monitoringi va tahlili"; "Ota-onalar uchun raqamli xavfsizlik boʻyicha qisqa qoʻllanma ishlab chiqish". Loyiha natijalari ichki ilmiy konferensiyada taqdim etiladi va eng yaxshilari ilmiy maqolaga aylantiriladi.

Paradoksal ravishda, raqamli avlod uchun raqamli vositalardan foydalanib oʻqitish samarali boʻladi: Mentimeter va Kahoot orqali interaktiv soʻrovnomalar, Padlet orqali fikrlarni umumlashtirish, Google Forms orqali diagnostika oʻtkazish, simulyatsion onlayn dasturlar orqali kiberbullying stsenariylarini boshdan kechirish. Bu yondashuv - "rivojlantirishga qarshi rivojlantirish" tamoyili: bola raqamli muhitda oʻzini himoya qilishni aynan raqamli muhitda oʻrganadi.

"Bir kun smartfonsiz" tajribasi, "Raqamli kunlik" yuritish, ekran vaqtini muntazam kuzatib borish kabi mashqlar talabalarda *metakognitiv* koʻnikmalarni - oʻz xulq-atvorini kuzatish va boshqarishni - rivojlantiradi. Talaba bu mashqlarni avval oʻzida sinab koʻradi, keyin amaliyot davrida oʻquvchilarga taklif qiladi. Bu - nazariy bilimni shaxsiy tajriba orqali singdirishning eng samarali yoʻli.

Yuqori kurs talabalari quyi kursdagilar yoki maktab oʻquvchilari uchun seminar va treninglar oʻtkazadilar. Bu metod ikki yoqlama foyda keltiradi: yuqori kurs talabasi nazariy bilimni amaliyotda mustahkamlaydi, kichikroqlar esa "kattalardan" emas, balki "tengdoshlardan" oʻrganadilar - bu axborotning samarali qabul qilinishini taʼminlaydi, chunki yoshi yaqin kishining gapi ishonchliroq qabul qilinadi.

Yuqorida sanab oʻtilgan metodlar mustaqil ravishda qoʻllanishi mumkin boʻlgani kabi, ular bir-birini toʻldirgan holda kompleks oʻqitish tizimini ham tashkil etishi mumkin. Faqat shu sharoitda nazariy bilim haqiqiy kasbiy malakaga aylanadi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga koʻra, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Raqamli avlod (Z va Alpha avlodlari) - texnologik muhitda tugʻilib oʻsgan birinchi avlod boʻlib, ular oldingi avlodlardan kognitiv (klipli tafakkur, multitasking), emotsional (yolgʻiz birgalik, depressiya darajasining oshishi) va neyropsixologik (dopaminer tizimning qayta tuzilishi) jihatdan tubdan farq qiladilar.

2. Asosiy raqamli psixologik tahdidlar quyidagilardan iborat: kiberbullying, raqamli giyohvandlik (gaming disorder, smartfon qaramligi, ijtimoiy tarmoq qaramligi), FOMO va ijtimoiy taqqoslash sindromi, diqqat buzilishlari va onlayn

xavfsizlik muammolari. Bu tahdidlar an'anaviy psixologik muammolardan o'z mexanizmi va dinamikasi bilan farq qiladi.

3. Psixologik himoya - bu yagona vosita emas, balki ko'p qatlamli tizimdir: shaxsiy kompetensiyalardan (raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash, emotsional intellekt) tortib oilaviy, maktab va davlat darajasidagi profilaktika choralarigacha. Klassik psixoanalitik himoya mexanizmlari ham raqamli kontekstda yangicha namoyon bo'ladi.

4. Pedagogik psixologiya kursida raqamli avlod va psixologik himoya mavzusini o'rgatish uchun keys-stadi, rolli o'yinlar, loyihalar, raqamli ta'lim vositalari, reflektiv mashqlar va tengdoshlar ta'limi kabi interaktiv metodlar eng samarali natija beradi.

5. Bo'lajak amaliy psixologlar ushbu sohada nafaqat nazariy bilimga, balki kuchli amaliy kompetensiyaga ham ega bo'lishi kerak, chunki ular kelajakda maktab, oila va jamiyat darajasida raqamli psixologik profilaktika ishini olib boradilar.

Raqamli avlod bilan ishlash bugungi pedagogik psixologiyaning eng dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda bu sohada ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, magistratura va doktorantura uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish hamda amaliyot bilan nazariyani birlashtirgan o'qitish modelini yaratish kelgusi tadqiqotlar uchun ustuvor vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'oziyev E.G'. Pedagogik psixologiya. — Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2011. — 312 b.
2. Davletshin M.G'. Psixologiya fanini o'qitish metodikasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2008. — 184 b.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. — Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2018. — 256 b.
4. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants // On the Horizon. — 2001. — Vol. 9, No. 5. — P. 1–6.
5. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. — New York: Bantam Books, 1995. — 352 p.
6. Przybylski A.K., Murayama K., DeHaan C.R., Gladwell V. Motivational, Emotional, and Behavioral Correlates of Fear of Missing Out // Computers in Human Behavior. — 2013. — Vol. 29, No. 4. — P. 1841–1848.
7. Carr N. The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains. — New York: W.W. Norton, 2010. — 276 p.
8. Spitzer M. Digitale Demenz: Wie wir uns und unsere Kinder um den Verstand bringen. — München: Droemer, 2012. — 368 S.
9. Turkle S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. — New York: Basic Books, 2011. — 384 p.

10. Twenge J.M. iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy. — New York: Atria Books, 2017. — 352 p.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni.

12. Young K.S. Internet Addiction: The Emergence of a New Clinical Disorder // CyberPsychology & Behavior. — 1998. — Vol. 1, No. 3. — P. 237–244.

13. UNESCO. Behind the numbers: Ending school violence and bullying. — Paris: UNESCO Publishing, 2019. — 76 p.

14. Орифбоева Д. Д. ОПТИМИЗАЦИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ // Форум молодых ученых. 2017. №6 (10). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/optimizatsiya-uchebno-poznavatel'nogo-protsessa-v-sredney-shkole> (дата обращения: 06.05.2026).

15. Д. Д. Орифбоева, М. М. Адашалиева ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ // «Ёш олимлар ахборотномаси» – «Вестник молодых ученых». 2025. №. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/voprosy-vnedreniya-i-razvitiya-inklyuzivnogo-obrazovaniya-v-stranah-tsentralnoy-azii> (дата обращения: 06.05.2026).

16. Oriboeva, D. D. va Rafiqova, RA (2024). O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni amalga oshirishning xususiyatlari. Fan va ta'lim, 5(6), 290-293.

17. Rustamova, S. S. Q. (2025). Dilafruz Oribboyeva Ta'limda gender stereotiplari va ularni yengish usullari. Science and Education, 12.

18. Oribboyeva, D. D. (2024). Ziyeda Botirova Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish xususiyatlarining rivojlanishi. Science and Education, 3.

19. Дилафрўз Дадамирзаевна Орифбоева, Рената Анатольевна Рафикова Особенности внедрения инклюзивного образования в Республике Узбекистан // Science and Education. 2024. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-vnedreniya-inklyuzivnogo-obrazovaniya-v-respublike-uzbekistan> (дата обращения: 06.05.2026).

20. Shuhratjon Shukurjon O'g'li Yoqubjanov, Dilafruz Oribboyeva Temperament va xarakter shakllanishida ijtimoiy omillarning roli // Science and Education. 2025. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/temperament-va-xarakter-shakllanishida-ijtimoiy-omillarning-rol> (дата обращения: 06.05.2026).

21. Mohigul Mamanazar Qizi Haydarova, D.D.Oribboyeva O'smirlar psixologiyasi // Science and Education. 2025. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlar-psixologiyasi> (дата обращения: 06.05.2026).

22. Д. Д. Ориббоева, Н. Б. Каримова Психологик тадқиқотларда буллинг муммосининг гендер тахлили // Science and Education. 2025. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/psihologik-tad-i-otlarda-bulling-mummosining-gender-tahlili> (дата обращения: 06.05.2026).

23. Kurbanova, Z. B. Oribboyeva DD Mehnat va muhandislik psixologiyasi. O 'quv qo 'llanma. Namangam-"Usmon Nosir mediya"-2022.220 b.

24. Dilafruz Dadamirzayevna Oribboyeva, Dilshoda Ikromova Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasining o'ziga xosligi, aqli zaiflik turlari // Science and Education. 2024. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aqliy-rivojlanishida-nuqsoni-bo-lgan-bolalar-psixologiyasining-o-ziga-xosligi-aqli-zaiflik-turlari> (дата обращения: 18.05.2026).

25. Oribboyeva, D. (2024). BULLING O'SMIRLARDA DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1 (12), 115-117.

26. Ortiqova, S. R. Q., & Oribboyeva, D. Z. D. (2025). Raqamli muhitda tarbiya: imkoniyatlari va xatarlar. Science and Education, 6(12), 673-677.

27. Oribboyeva, D. D. (2020). Social competence as an integral part of the teacher's professional maturity. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(11), 347353.